MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-igtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.us/pages/4802


05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERRATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O‘ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR 15
Sodiqov Elmurod Shomurod o‘g‘li
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ 21
Адилов Шерзот Шамильевич
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE’MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI 30
Farmonov Dilshod Po‘latovich
SUN’IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO‘YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O‘ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO‘NALISHLAR 36
Durdona Davletova
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI 56
Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
O‘ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEXANIZMI 61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 68
Safarov Shohboz Vahob o‘g‘li
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS 72
Azimov Shavkat Shuxratovich
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH 78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH 85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN 90
Turaeva Dilnavoz
YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI 96
Dilshod Karimboyev
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА 102
Юсупова Мохинур Фарход кизи
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА 110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ 121
Икрамова Нодира Бурхон кизи
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH 128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI 133
Temirova Shalola Erkinovna
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI 138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI 142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION 150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI 161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH 168
Jafarov Sobir Talab o'g'li
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH 173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА 190
Умаров Улугбек Унарович
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOIY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI 197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOIY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI

Jamolov Mirzabek Mirjalil o‘g‘li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
Yetakchi mutaxassis

Annotatsiya. Maqolada hududlar kesimida aholi farovonligini faqat daromad ko‘rsatkichlari orqali emas, balki kundalik yashash sharoitlari bilan birgalikda baholash zarurati asoslanadi. Xalqaro tadqiqotlar hamda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va OECD yondashuvlari asosida Ijtimoiy sharoitlar va bazaviy obodlik indeksi (ISBO) taklif etiladi. Indeks daromadlar, bozor xizmatlari, kommunal infratuzilma va uy-joy ta’minotini yagona 0–100 ballik tizimda birlashtirib, hududlarning nisbiy holatini hamda daromad salohiyati bilan real yashash qulayligi o‘rtasidagi tafovutni aniqlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv hududiy nomutanosibliklarni diagnostika qilish va manzilli rivojlanish ustuvorliklarini belgilashda amaliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, farovonlik, ijtimoiy sharoitlar, bazaviy obodlik, kompozit indeks, inklyuziv o‘sish, ISBO, hududiy tafovutlar.

Abstract. This article argues for the need to assess the well-being of the population at the regional level not only based on income indicators, but also in conjunction with everyday living conditions. Drawing on international studies and approaches from the World Bank, the Asian Development Bank, the International Monetary Fund, and the OECD, the article proposes the Index of Social Conditions and Basic Well-Being (ISBO). The index combines income, market services, public infrastructure, and housing provision into a unified 0–100-point scale, making it possible to determine the relative standing of regions and the gap between income potential and actual quality of life. This approach can serve as a practical tool for diagnosing territorial disparities and setting priorities for targeted development.

Keywords: regional development, well-being, social conditions, basic amenities, composite index, inclusive growth, ISBO, regional disparities.

Аннотация. В статье обосновывается необходимость оценки благосостояния населения в разрезе регионов не только по показателям доходов, но и в сочетании с повседневными условиями жизни. На основе международных исследований и подходов Всемирного банка, Азиатского банка развития, Международного валютного фонда и ОЭСР предлагается Индекс социальных условий и базового благосостояния (ISBO). Индекс объединяет доходы, рыночные услуги, коммунальную инфраструктуру и жилищное обеспечение в единую 0–100-балльную систему, позволяя определить относительное положение регионов и разрыв между потенциалом доходов и реальным комфортом жизни. Данный подход может служить практическим инструментом диагностики территориальных диспропорций и определения приоритетов адресного развития.

Ключевые слова: региональное развитие, благосостояние, социальные условия, базовое благоустройство, композитный индекс, инклюзивный рост, ISBO, региональные различия.

KIRISH

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda daromad va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari muhim bo‘lsa-da, ular aholining kundalik turmush sharoitlarini to‘liq aks ettirmaydi. Bir xil yoki yaqin iqtisodiy salohiyatga ega hududlarda xizmatlardan foydalanish, kommunal infratuzilma va uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi sezilarli farq qilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy hududiy tahlilda iqtisodiy imkoniyatlarni ularning aholi hayotidagi amaliy natijalari bilan birgalikda baholash zarur. O‘zbekiston sharoitida ushbu masala hududlar o‘rtasida daromadlar, xizmatlar bozori va bazaviy infratuzilma bo‘yicha mavjud farqlar sababli alohida ahamiyat kasb etadi. Alohida statistik ko‘rsatkichlar muammoning faqat bir tomonini ko‘rsatadi va iqtisodiy salohiyatning qanchalik darajada real yashash qulayligiga aylanganini aniqlash imkonini cheklaydi. Xalqaro amaliyotda mazkur muammo ko‘p o‘lchovli farovonlik, inklyuziv o‘sish va kompozit indekslar orqali o‘rganiladi. Biroq mavjud yondashuvlarning katta qismi milliy darajadagi farovonlik, kambag‘allik yoki inklyuzivlikni baholashga qaratilgan. Shu jihatdan hududning daromad salohiyati va uning ijtimoiy-maishiy sharoitlarga aylanishini birgalikda ko‘rsatuvchi ixcham diagnostik vositaga ehtiyoj mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Farovonlikni o‘lchash bo‘yicha zamonaviy ilmiy qarashlarda iqtisodiy natijalarni faqat YAIM yoki daromad bilan baholash yetarli emasligi ta’kidlanadi. Stiglitz, Sen va Fitoussi (2009) iqtisodiy resurslar bilan bir qatorda uy xo‘jaliklarining real turmush sharoiti, xizmatlardan foydalanish imkoniyati va hayot sifatini hisobga olish zarurligini asoslagan. Mazkur yondashuv keyinchalik ko‘p o‘lchovli farovonlik indikatorlarining rivojlanishiga metodologik asos bo‘ldi [1].

Kompozit indekslarni shakllantirish metodologiyasi Nardo va boshqalar (2008) tomonidan tizimlashtirilib, indikatorlarni tanlash, normallashtirish, vaznlash va agregatsiya qilish bosqichlari asoslab berilgan. OECDning Regional Well-being yondashuvida esa daromad, bandlik, uy-joy, sog‘liq, ta’lim va xizmatlardan foydalanish kabi ko‘rsatkichlar hududiy darajada birgalikda tahlil qilinib, milliy o‘rtacha ko‘rsatkichlar hududlar ichidagi tafovutlarni yashirishi mumkinligi ko‘rsatiladi [2].

Xalqaro tashkilotlar amaliyotida ham shunga yaqin yondashuvlar mavjud. Jahon bankining Multidimensional Poverty Measure [7] tizimi monetar holatni ta’lim va bazaviy infratuzilma bilan birgalikda baholaydi. Osiyo taraqqiyot banki McKinley (2010) [3] tomonidan ishlab chiqilgan Inclusive Growth Index hamda inklyuziv o‘sish indikatorlari orqali daromad, imkoniyatlardan foydalanish, infratuzilma va ijtimoiy himoya omillarini uyg‘unlashtiradi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotlarida Anand, Mishra va Peiris (2013) [4], shuningdek, Kireyev va Chen (2017) [5] iqtisodiy o‘sish natijalarini kambag‘allik va daromad taqsimoti bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

ISBO (Index of Social and Basic Living Conditions) - hudud aholisi daromadlari, xizmatlar bozori, kommunal infratuzilma va uy-joy ta’minoti kabi ko‘rsatkichlarni 14 ta hudud kesimida min–max usulida 0 dan 100 oralig‘iga normallashtiriladi. Yakuniy bahoda daromad bloki 40%, qulaylik bloki 60% ulushni tashkil etadi. U iqtisodiy salohiyatning aholining kundalik hayotidagi real qulaylikka aylanish darajasini ko‘rsatuvchi kompleks tahliliy indeks hisoblanadi. Bunda daromadlar bloki - aholi jon boshiga daromad va real daromad o‘sishini o‘z ichiga olsa, qulaylik bloki - bozor xizmatlari, tabiiy gaz, kanalizatsiya va bir kishiga uy-joy maydoni kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi.

Ko‘rsatkichlar turli o‘lchov birliklarida ifodalanganligi sababli ular 0–100 ball oralig‘iga min–max usuli orqali normallashtiriladi:

$$N_{ij} = [(X_{ij} - X_j^{min}) / (X_j^{max} - X_j^{min})] \times 100$$

bu yerda X_{ij} - i-hududning j-ko‘rsatkich bo‘yicha haqiqiy qiymati; X_j^{min} va X_j^{max} - tegishli ko‘rsatkichning hududlar orasidagi minimal va maksimal qiymatlari. Barcha tanlangan ko‘rsatkichlar ijobiy yo‘nalishga ega.

Daromadlar va qulaylik subindekslari quyidagicha hisoblanadi:

$$DI_i = 0{,}60N_{1i} + 0{,}40N_{2i}$$

$$QI_i = 0{,}25(N_{3i} + N_{4i} + N_{5i} + N_{6i})$$

Yakuniy ISBO qiymati ikki subindeksning vaznli yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

$$ISBO_i = 0{,}40DI_i + 0{,}60QI_i$$

Natijada ISBO 0–100 ball oralig‘ida shakllanib, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari va bazaviy yashash sharoitlarini yagona mezonda taqqoslash imkonini beradi. Indeksning diagnostik imkoniyatini kengaytirish uchun daromad va qulaylik o‘rtasidagi tafovut ham hisoblanadi:

$$G_i = QI_i - DI_i$$

G_i ning musbat qiymati qulaylik darajasi daromad salohiyatidan nisbatan yuqori ekanini, manfiy qiymati esa xizmatlar va infratuzilmaning daromad imkoniyatlaridan ortda qolayotganini ko‘rsatadi. ISBO nisbiy kompozit indeks bo‘lib, 100 ball mutlaq ijtimoiy standartga erishilganini emas, balki tanlangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha hududlar orasidagi eng yuqori nisbiy pozitsiyani anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR


2025-yilda Ijtimoiy-maishiy ta’minlanganlik indeksi (ISBO) hududlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatdi. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida - 88,8 ball, eng past natija esa Surxondaryo viloyatida - 9,1 ballni tashkil etdi. Tafovut 79,7 ball yoki qariyb 9,8 baravarga teng. Respublika bo‘yicha o‘rtacha ISBO 29,7 ballni tashkil etib, faqat oltita hudud ushbu darajadan yuqori joylashgan.

Toshkent shahri nafaqat daromadlar, balki xizmatlar va kommunal infratuzilma bo‘yicha ham keskin ustunlikka ega. Daromad indeksi 82,3 ball, qulaylik indeksi esa 93,1 ballni tashkil etadi. Bu poytaxtda iqtisodiy imkoniyatlar va yashash sharoitlari bir vaqtda yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Toshkent shahrining keskin yuqori ko‘rsatkichlari uni boshqa hududlardan ajralib turuvchi strukturaviy markazga

aylantirmoqda.

Navoiy viloyati 48,0 ball bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Hududning yuqori pozitsiyasi asosan daromad va uy-joy bilan ta’minlanganlik hisobiga shakllangan bo‘lsa-da, xizmatlar sektori mavjud iqtisodiy salohiyatga to‘liq mos kelmaydi. Demak, asosiy rezerv mavjud daromadlarni xizmatlar va zamonaviy yashash infratuzilmasiga kengroq aylantirishdan iborat.


Toshkent viloyatida, aksincha, holat kuzatiladi: daromad indeksi 21,0 ball, qulaylik indeksi esa 57,2 ball bo‘lib, farq +36,1 punktni tashkil etadi. Bu mamlakatdagi eng katta ijobiy tafovut bo‘lib, infratuzilma va yashash sharoitlari daromad salohiyatidan sezilarli oldinda ekanini ko‘rsatadi. Hudud uchun asosiy vazifa mavjud infratuzilmadan yuqori unumdor bandlik va daromadlarni oshirishda samaraliroq foydalanishdir (1-rasm).



1-rasm. Hududlar kesimida ISBO reytingi (2025-yil ma’lumotlari asosida)[1]

Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida esa daromad salohiyati yashash qulayligidan yuqori. Farg‘onada daromad va qulaylik indekslari o‘rtasidagi tafovut –15,2 punkt, Buxoroda –12,2 punktni tashkil etadi. Bu iqtisodiy faollik va daromadlar o‘sishi kommunal infratuzilma hamda xizmatlar rivojiga to‘liq aylanmayotganini anglatadi.

1 Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-rasm. ISBO tarkibiy ustunlari bo‘yicha hududiy profil (2025-yil ma’lumotlari)[2]

Eng katta infratuzilmaviy nomutanosiblik Qashqadaryo va Surxondaryoda qayd etilgan. Qashqadaryoda daromad indeksi 25,5 ballga nisbatan qulaylik indeksi atigi 5,1 ball bo‘lib, –20,4 punktlik eng katta salbiy tafovut kuzatilgan. Surxondaryoda esa qulaylik indeksi atigi 2,6 ball, daromad va qulaylik o‘rtasidagi farq –16,2 punktni tashkil etadi. Bu hududlarda iqtisodiy salohiyatga nisbatan gaz, kanalizatsiya, xizmatlar va yashash infratuzilmasi sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Xorazmda daromad va qulaylik indekslari deyarli teng — mos ravishda 34,6 va 35,2 ball. Samarqand, Jizzax va Namanganda ham keskin nomutanosiblik mavjud emas, biroq ikki yo‘nalishning umumiy darajasi nisbatan past. Bu hududlarda asosiy vazifa mavjud muvozanatni saqlagan holda daromad va yashash sharoitlarini parallel ravishda yaxshilashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farg‘ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryoda yangi kapital loyihalarni tanlashda gaz, kanalizatsiya, mahalliy servis va uy-joy infratuzilmasidagi eng katta uzilishni birinchi mezon sifatida olish.

Toshkent viloyati, Sirdaryo va Qoraqalpog‘istonda mavjud muhandislik va transport bazasi atrofida xizmatlar, logistika, qayta ishlash va kichik biznes klasterlarini joylashtirish. Davlat yordami yangi obyekt qurishdan ko‘ra, mavjud infratuzilmaning yuklanishi va xususiy bandlikni oshirishga bog‘lanadi.

Xorazm, Samarqand, Jizzax, Namangan va Andijonda har yili ISBO tarkibidagi eng past ikki ko‘rsatkich aniqlanib, hududiy investitsiya limiti shu yo‘nalishlarga ustuvor ajratiladi. Bu barcha tarmoqlarni bir vaqtda moliyalashtirish amaliyotini qisqartirib, cheklangan budjet resurslarining qaytimini oshiradi.

Navoiy, Farg‘ona va Buxoroda daromad yoki ishlab chiqarish salohiyatini kundalik xizmatlar bozoriga

2 Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bog‘lash uchun tayyor infratuzilmali servis zonalari, xususiy operatorlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. Natija yangi obyektlar soni bilan emas, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va kommunal qamrovdagi o‘sish bilan baholanadi.

3 yillik hududiy “yashash muhiti” kelishuvlarini joriy etib, qo‘shimcha budjet transfertlarini gaz/kanalizatsiya qamrovi, aholi jon boshiga xizmatlar va daromad–qulaylik tafovutining yaxshilanishiga bog‘lash. Keyingi transh faqat oldindan belgilangan natija ko‘rsatkichlari bajarilganda ajratish.

Poytaxtdagi xizmatlar, logistika va malakali mehnat bozorining ta’sirini Toshkent viloyati va Sirdaryo yo‘nalishidagi transport-servis tugunlari orqali kengaytirish. Bu yangi markaz yaratishdan ko‘ra, mavjud aglomeratsiya samaralarini hududlar bo‘yicha tarqatishga yo‘naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J.-P. (2009). Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress.
2. Nardo, M., Saisana, M., Saltelli, A., Tarantola, S., Hoffmann, A., & Giovannini, E. (2008). Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. OECD/European Commission.
3. McKinley, T. (2010). Inclusive Growth Criteria and Indicators: An Inclusive Growth Index for Diagnosis of Country Progress. Asian Development Bank.
4. Anand, R., Mishra, S., & Peiris, S. J. (2013). Inclusive Growth: Measurement and Determinants. IMF Working Paper No. 13/135.
5. Kireyev, A., & Chen, J. (2017). Inclusive Growth Framework. IMF Working Paper No. 17/127.
6. OECD. (2014). How’s Life in Your Region? Measuring Regional and Local Well-being for Policy Making.
7. World Bank. Multidimensional Poverty Measure: methodology and indicators.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100